



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LGASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamiy Amriddin Xamdamiy o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikrayeva Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	217
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	224
Raximova Lolaxon Avazovna	
MEHNAT INTIZOMINING KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	228
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY TURIZM XIZMATLARINING EKONOMETRIK BAHOLANISHI.....	237
Yusupova Mexribon Uktamovna	
KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH.....	245
Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	251
Madaminova Feruza Tursunboy qizi	
YASHIL INVESTITSIYALARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	259
Raximova Shaxnoza Xamzayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TAYYOR MAHSULOTLAR EKSPORTINI RAG'BATLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TA'MINOT YO'LLARI.....	263
Esanov Yusufjon Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT: MOHIYATI, XUSUSIYATLARI VA O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	267
Sultonov Shahzod Shavkat o'g'li	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEXANIZMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	275
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA MILLIY EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING MEXANIZMLARI.....	281
Jumayeva Zamira Bustonovna	
MARKAZIY OSIYO UCHUN GEOSIYOSIY RISK (GPR) INDEKSINI ISHLAB CHIQISH	285
Qodirova Laylo Otabekovna	
BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	289
Elmurod Sodiqov Shomurod o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	295
Abduvaliyev Zafar Mahmudovich	
AVTOMOBIL BUTLOVCHI QISMLAR ISHLAB CHIQARISHDA MAHALLIYLASHTIRISH VA TA'MINOT TARMOG'INI DIVERSIFIKATSIYALASH SAMARADORLIGI.....	301
Asadov Elyorbek Kandiayrovich	



INFRATUZILMA TADBIRKORLIK FAOLIYATI UCHUN ZARUR OBYEKTLAR, INSTITUTLAR, RESURSLAR VA XIZMATLAR MAJMU'I.....	307
Rustamov Sultonbek Bekzadovich	
TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK PARADOKSLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	315
Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich	
"YASHIL" SANOAT SIYOSATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI.....	323
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI HISOBI VA ULARDAN FOYDALANISH USTIDAN ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH.....	330
Murtozayeva Xusnora Erkin qizi	
KORXONANING BREND EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Sa'dulloyev Habibullo Ibodullo o'g'li	
AGRAR VA SANOAT TARMOQLARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ORQALI YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	341
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING ENERGIYA TA'MINOTIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI.....	347
Jo'ramurodova Feruza Mardon qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH VA INVESTITSION STRATEGIYALARNI BOSHQARISH.....	353
Nazarova Nigora Yusufova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING AKADEMIK FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY-TASHKILY ASOSLARI.....	361
Raximbayev Musobek Komiljon o'g'li	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING SHAKLLANISH TENDENSIYALARI, HUDUDLARARO FISKAL TAFOVUTLAR VA HUDUDIY SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MUAMMALARINING TIZIMLI TAHLILI.....	367
Azamjonov Ulug'bek Usmonjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINING EVOLYUTSION RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI.....	377
Erxanov Muxammadjon Absayitovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	382
Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi	
MAMLAKATIMIZDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI.....	386
Qo'ziboev Umarbek Ulug'bekovich	
JUFT KORRELYATSIYA VA REGRESSIYA TAHLILI YORDAMIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI ANIQLASH.....	390
Muxtorova Shohida Negmat qizi	
TURISTIK INNOVASION LOYIHALARNI KRAUDFANDING ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH MODELI.....	397
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT AMALLARINING NATIJADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI MUAMMOLAR.....	403
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISH HAMDA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Xalilov Bahromjon Bahodirovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	412
Masharipova Maksuda Becnazarovna	



COOPERATION BETWEEN CREATIVE INDUSTRIES AND TOURISM SERVICES IN BUILDING A NATION BRAND: FORMS, ASYMMETRIES, AND THE MISSING INTERFACE	419
Yusupova Mokhinur Farkhod qizi	
SUVEREN FONDLARDA ESG TAMOIYILLARINI BAHOLASH: MANDAT TURIGA ASOSLANGAN DIFFERENSIAL YONDASHUV	429
Jumaniyazov Inomjon Turayevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТАРИФНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ЗАТРАТ И ЦЕНОВЫХ СИГНАЛОВ	438
Аллаева Гульчехра Жалгасовна	
BOZOR SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASH TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH JARAYONINI RIVOJLANTIRILISHI	447
Temirova Shalola Erkinovna	
COMPARATIVE DYNAMICS OF AGRICULTURAL SUPPORT AND GREEN TRANSFORMATION: EVIDENCE FROM FOUR COUNTRIES	452
Abduraimov Abdunabi	
SOLIQ MEXANIZMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTIONAL ASOSLARI	460
To'laganova Feruza Xamidulla qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV DARAJASINI MOLIYAVIY NATIJADAN MUSTAQIL BAHOLASH USLUBIYOTI	467
Axmadjanov Abrorbek Akbarjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA YOSHLARNING INNOVATSION ISH BILAN BANDLIGINI TARTIBGA SOLISHNING MAZMUNI VA AHAMIYATI	473
Bozorova Guljahon Otabek qizi	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NARXLARINING SHAKLLANISHI: INFLYATSION OMILLAR VA ULARNING AHOLI TURMUSH DARAJASIGA TA'SIRI	479
Xakimov Rashid	
PROSPECTS FOR PROMOTING UZBEKISTAN'S TOURISM BRAND IN THE INTERNATIONAL MARKET THROUGH ELEMENTS OF NATIONAL FASHION	485
Yusupova Mokhinur Farkhod qizi	
O'ZBEKISTON SUVEREN KREDIT REYTINGIDA DAVLAT QARZI BARQARORLIGINING O'RNINI	494
Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o'g'li	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	505
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ DUE DILIGENCE'NI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	512
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	519
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0000-6613-8676
E-mail: farkhod1808@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda elektron savdo xizmatlarining hozirgi holati bozor aylanmasi va sohada shakllanayotgan institutsional muhit bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan. 2021–2025-yillardagi rasmiy statistik qator asosida elektron tijorat hajmining o‘zgarish sur‘atlari baholangan, tartibga solish tizimida yuz bergan yangiliklar esa huquqiy va iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tizimlashtirilgan. Tahlilda operatorlar faoliyatini rasmiylashtirish, kuryerlik xizmatlari, davlat axborot tizimlari bilan integratsiya, bond omborlari va transchegaraviy operatsiyalar alohida ko‘rib chiqilgan. Natijalar raqamli savdo bozori miqdoriy kengayish bilan cheklanmay, hisobdorlik, shaffoflik va tashqi bozorlarga integratsiyalashuvga tayanuvchi yangi bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Yakunda statistik kuzatuvni chuqurlashtirish, operatorlar reyestridan tahliliy maqsadlarda foydalanish, axborot almashinuvi standartlarini takomillashtirish va elektron eksport jarayonlarini soddalashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: elektron savdo, elektron tijorat, raqamli bozor, elektron savdo platformasi, operator, transchegaraviy savdo, kuryerlik xizmati, institutsional rivojlanish.

Abstract. This article examines the current state of e-commerce services in Uzbekistan in relation to market turnover and the emerging institutional environment in the sector. Based on official statistical data for 2021–2025, the growth dynamics of e-commerce volume are assessed, while recent developments in the regulatory framework are systematized according to their legal and economic significance. The analysis specifically considers the formalization of operators’ activities, courier services, integration with government information systems, bonded warehouses, and cross-border transactions. The results indicate that the digital commerce market is entering a new stage characterized not only by quantitative expansion but also by increased accountability, transparency, and integration with external markets. The article concludes by proposing measures to improve statistical monitoring, use the operators’ registry for analytical purposes, enhance information-exchange standards, and simplify e-export processes.

Keywords: electronic commerce, e-commerce, digital market, e-commerce platform, operator, cross-border trade, courier service, institutional development.

Аннотация. В статье исследуется современное состояние услуг электронной торговли в Узбекистане во взаимосвязи с оборотом рынка и формирующейся институциональной средой отрасли. На основе официальных статистических данных за 2021–2025 годы оценена динамика изменения объёма электронной коммерции, а изменения в системе регулирования систематизированы с точки зрения их правового и экономического содержания. В ходе анализа отдельно рассмотрены вопросы формализации деятельности операторов, курьерских услуг, интеграции с государственными информационными системами, функционирования бондовых складов и трансграничных операций. Результаты показывают, что рынок цифровой торговли переходит на новый этап развития, основанный не только на количественном расширении, но и на повышении подотчётности, прозрачности и интеграции с внешними рынками. В заключение разработаны предложения по совершенствованию статистического наблюдения, использованию реестра операторов в аналитических целях, совершенствованию стандартов информационного обмена и упрощению процессов электронного экспорта.

Ключевые слова: электронная торговля, электронная коммерция, цифровой рынок, платформа электронной торговли, оператор, трансграничная торговля, курьерская услуга, институциональное развитие.



KIRISH

Raqamli muhitda amalga oshiriladigan savdo operatsiyalari zamonaviy iqtisodiyotda oddiy muqobil sotuv kanalidan kengroq mazmun kasb etmoqda. Tovar yoki xizmat haqidagi ma'lumotni taqdim etish, buyurtmani rasmiylashtirish, hisob-kitobni bajarish, mahsulot harakatini kuzatish va bitim natijasini qayd etish yagona texnologik zanjirga birlashgani sari sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi munosabatlarning tashkiliy shakli o'zgaradi. Natijada bozorda platforma operatorlari, to'lov vositachilari, logistika xizmatlari va raqamli identifikatsiya tizimlarining iqtisodiy roli ortib bormoqda.

O'zbekistonda mazkur munosabatlarning huquqiy asosi 2022-yilda yangi tahrirdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan yangilandi [1]. Hujjatda elektron tijorat subyektlari, operatorlar, platformalar, elektron shartnomalar hamda ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari belgilangan. Keyingi qaror va nizomlar esa tartibga solish predmetini alohida bitimdan bozor infratuzilmasi, operatorlar hisobdorligi, yetkazib berish zanjiri va axborot tizimlari integratsiyasigacha kengaytirdi.

Mazkur yo'nalishning iqtisodiy ahamiyati bozor hajmidagi o'zgarishda ham namoyon bo'lmoqda. Milliy statistika qo'mitasining 2026-yil 10-sentabrda yangilangan yillik qatoriga ko'ra, elektron tijorat savdo hajmi 2021-yildagi 5 978,7 mlrd so'mdan 2025-yilda 31 551,9 mlrd so'mga yetgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2026). Bunday dinamika raqamli savdoni iqtisodiyotdagi ikkilamchi jarayon emas, balki alohida tahlil talab etadigan bozor shakli sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, aylanmaning yuqori sur'atda ko'payishi bozorning institutsional rivojlanishi izchil davom etayotganini ko'rsatadi. Operatorlarning huquqiy maqomi, tranzaksiyalarni hisobga olish, davlat axborot tizimlari bilan ma'lumot almashish, xorijiy xaridorga tovar jo'natish hamda xizmat zanjiridagi javobgarlik chegaralari raqamli savdoning kelgusi samaradorligini belgilaydigan omillardir. Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda elektron savdo xizmatlarining 2021–2025-yillardagi dinamikasini baholash, 2022–2026-yillardagi institutsional o'zgarishlarni tizimlashtirish va sohani rivojlantirishning amaliy ustuvorliklarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron tijorat ilmiy adabiyotlarda tranzaksiyalarni tashkil etish xarajatlarini kamaytiruvchi, bozor chegaralarini kengaytiruvchi va biznes modelini yangilovchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Laudon va Traver (2024) elektron tijoratni texnologiya, biznes strategiyasi va ijtimoiy-institutsional muhitning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan tizim sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv onlayn savdoni faqat internet infratuzilmasining kengayishi bilan izohlash yetarli emasligini anglatadi. O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini M. Sh. Xushmurodova tomonidan maxsus tadqiq etilgan. Muallif xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti doirasida sohaning samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi boshqaruv mexanizmlariga e'tibor qaratadi (Xushmurodova, 2024). U. Satvoldiyev (2024) esa elektron tijoratning me'yoriy-huquqiy bazasini institutsional nuqtayi nazardan tizimlashtirib, qonun va qarorlarning bozordagi tartibga solish rolini yoritgan.

L. Maxmudovning 2025-yilda o'tkazgan empirik tadqiqoti iste'molchi nuqtayi nazaridan muhim omillarni aniqlashga qaratilgan. Toshkent, Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo hududlarida o'tkazilgan so'rov natijalarida tovar sifati, yetkazib berish muddati, internet sifati va to'lov tizimlari ishonchligi xarid qaroriga ta'sir qiluvchi muhim omillar sifatida qayd etilgan (Maxmudov, 2025). Ushbu ish mikro darajadagi talab va xizmat sifati omillarini tushuntirishda muhim manba hisoblanadi.

M. Maxammadaliyeva (2025) raqamli xizmatlar bozorida elektron tijoratning o'rnini moliyaviy, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa masofaviy xizmatlar bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Sh. Nazarova (2026) esa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, huquqiy tartibga solish va mavjud cheklovlarni o'rganib, elektron tijorat bozorining institutsional tomonlariga e'tibor qaratadi. Mazkur tadqiqotlar bozorning alohida funksional jihatlarini yoritadi, biroq 2025-yilda qayd etilgan yangi statistik natija va 2026-yilda shakllangan operatorlar reyestri hamda bond omborlari mexanizmi ularning doirasidan keyingi jarayonlardir.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kichik va o'rta biznesning raqamli transformatsiyasini bozor qamrovini kengaytirish va operatsion jarayonlarni qayta tashkil etish bilan bog'laydi (OECD, 2021). Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi esa elektron tijoratning rivojini raqamli infratuzilma, ma'lumotlar boshqaruvi, tartibga solish va xalqaro savdo imkoniyatlarining uyg'unlashuvi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi (UNCTAD, 2025).

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda iste'molchi xulq-atvori, raqamli xizmatlar, davlat siyosati va huquqiy asoslar bo'yicha alohida tadqiqotlar mavjud. Mazkur maqolaning farqli jihati elektron savdo xizmatlarini hududiy ko'rsatkichlar yoki iste'molchi so'rovi asosida emas, balki bozor aylanmasining 2021–2025-yillardagi o'zgarishi va 2022–2026-yillarda bosqichma-bosqich shakllangan institutsional mexanizmlarning iqtisodiy mazmuni asosida baholashdan iborat.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda dinamik va qiyosiy tahlil, institutsional tahlil, tizimli yondashuv hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning statistik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining elektron tijorat savdo hajmiga oid 2021–2025-yillardagi ma'lumotlari tashkil etdi. Elektron savdo bozorida institutsional o'zgarishlarni baholashda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy ma'lumotlari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston elektron tijorat bozorining 2021–2025-yillardagi dinamikasi yuqori o'sish sur'atlari bilan, biroq bir maromda bo'lmaganligi bilan tavsiflanadi. Davr ichidagi o'zgarishlar bozorning dastlabki kengayish bosqichi, nisbatan sekinlashgan yillar va 2025-yildagi sezilarli o'sishni ajratish imkonini beradi.

1-jadval.

O'zbekistonda elektron tijorat savdo hajmining 2021–2025-yillardagi dinamikasi¹

No	Yillar	Elektron tijorat savdo hajmi, mlrd so'm	Oldingi yilga nisbatan o'sish, %
1.	2021	5 978,7	–
2.	2022	10 886,8	82,1
3.	2023	13 263,8	21,8
4.	2024	15 211,5	14,7
5.	2025	31 551,9	107,4

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillar oralig'ida elektron tijorat aylanmasi 5,28 baravarga ko'paygan. Davr uchun o'rtacha yillik geometrik o'sish sur'ati qariyb 51,6 foizni tashkil etadi. Yillik natijalar esa bu kengayishning chiziqli jarayon bo'lmaganini ko'rsatadi: 2022-yilda 82,1 foizlik o'sish qayd etilgan, 2023–2024-yillarda sur'at 21,8 va 14,7 foizgacha pasaygan, 2025-yilda esa aylanma avvalgi yilga nisbatan 107,4 foizga oshgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2026).

2025-yildagi sezilarli o'zgarishni faqat iste'mol talabining tabiiy ko'payishi bilan izohlash uchun ochiq ma'lumotlar yetarli emas. Rasmiy qator o'sishning qaysi qismi yangi xaridorlar, tranzaksiyalar soni, o'rtacha buyurtma summasi yoki statistik qamrovdagi o'zgarish hisobiga yuz berganini ajratmaydi. Shu bois ushbu natijani bozor ko'lamidagi muhim strukturaviy siljish sifatida qayd etish mumkin, uning sabablarini chuqur aniqlash esa qo'shimcha mikrostatistik ma'lumotlarni talab qiladi.

Bozor aylanmasining kengayishi bilan parallel ravishda tartibga solish tizimi ham murakkablashib bormoqda. 2022-yildagi qonun elektron bitim va ishtirokchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni belgilagan bo'lsa, keyingi hujjatlar operatorlarning maqomi, moliyaviy hisob, yetkazib berish zanjiri, davlat axborot tizimlari bilan integratsiya va tashqi bozorlarga elektron kanallar orqali chiqish masalalarini qamrab oldi.

2-jadval.

O'zbekistonda elektron savdo xizmatlari institutsional rivojlanishining asosiy bosqichlari²

No	Davr	Asosiy o'zgarish	Iqtisodiy mazmuni
1.	2022	“Elektron tijorat to'g'risida”gi Qonun	Elektron bitimlar va bozor ishtirokchilarining bazaviy huquqiy qoidalarini belgilandi
2.	2024	Vazirlar Mahkamasining 885-son qarori	Operatorlar tasnifi, hisob yuritish, statistik kuzatuv va axborot tizimlari integratsiyasi kuchaytirildi
3.	2025	Kuryerlik faoliyatiga doir alohida nizom	Yetkazib berish zanjiridagi mas'uliyat va xizmat talablari aniqlashtirildi
4.	2026	PQ-136 va 388-son qarorlar asosida bond omborlari mexanizmi	Maxsus elektron platformalar bilan bog'langan yangi ombor-savdo modeli huquqiy eksperiment sifatida joriy etildi
5.	2026	Operatorlarni xabardor qilish tartibi	Vakolatli organni xabardor qilish va ochiq reyestr yuritishning protsessual qoidalarini belgilandi

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2 Manba: normativ-huquqiy hujjatlar va Istiqbolli loyihalar milliy agentligi materiallari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



Jadvaldan ko'rinadiki, tartibga solishning asosiy obyekti bosqichma-bosqich kengaygan. Dastlab elektron bitimning yuridik kuchi va tomonlar huquqi ustuvor bo'lgan bo'lsa, keyingi davrda e'tibor bozor infratuzilmasi, operatorlar faoliyati, xizmat zanjiri va raqamli hisobga ko'chgan. Mazkur siljish elektron savdo siyosatining tranzaksiyani qonuniylashtirishdan bozorni boshqarish va kuzatish imkoniyatlarini kuchaytirish bosqichiga o'tayotganini ko'rsatadi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrda 885-son qarori ushbu transformatsiyada muhim o'rin tutadi [2]. Hujjat elektron savdo platformalari, buyurtmalar agregatorlari va raqamli striming xizmatlari operatorlarini tasniflash, hisob-kitoblarni tartibga solish, statistik ma'lumotlarni shakllantirish hamda platformalarni soliq va bojxona axborot tizimlari bilan integratsiyalashga qaratilgan mexanizmlarni nazarda tutadi. Bu yondashuv elektron tijoratning davlat boshqaruvi va iqtisodiy hisob tizimlari bilan integratsiyalashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Operatorlarning aniq identifikatsiyasi bozor tarkibini tahlil qilish uchun ham ahamiyatli. 2026-yil 22-iyundagi O'RB-1154-son Qonun bilan xabardor qilish tartib-taomillariga o'zgartirishlar kiritilib, 2026-yil 23-sentabrda elektron tijorat operatorlari faoliyatini xabardor qilish tartibi joriy etilishi belgilandi [3]. Elektron tijorat operatorlari faoliyatini tartibga solish doirasida elektron savdo platformalari, buyurtmalar agregatorlari hamda raqamli striming xizmati operatorlarini hisobga olish va ularning faoliyatini tizimli kuzatish mexanizmlari shakllantirilmoqda. Ochiq reyestrning yuritilishi operatorlar soni, faoliyat yo'nalishlari va bozor tarkibi bo'yicha statistik kuzatuv imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kuryerlik faoliyatining alohida tartibga solinishi raqamli savdoda bitim natijasi platformadagi to'lov bilan tugamasligini ko'rsatadi. 2025-yilda tasdiqlangan nizomda operator va kuryerlarning huquq hamda majburiyatlari, tovarlarni, jumladan, ayrim tez buziladigan mahsulotlarni xavfsiz yetkazish talablari belgilangan [5]. Shu tariqa yetkazib berish jarayoni elektron operatsiyaning texnik davomi emas, xaridor oldidagi majburiyat bajarilishini ta'minlovchi mustaqil xizmat bo'g'iniga aylanmoqda.

Raqamli savdoning kelgusi imkoniyatlari ichki bozor bilan cheklanmaydi. 885-son qarorda yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning elektron platformalar orqali sotilgan ayrim tovarlarni pochta va kuryerlik jo'natmalari vositasida xorijdagi xaridorlarga yetkazish tartibini soddalashtirish choralari belgilangan. Bunday mexanizm kichik hajmdagi eksport partiyalari uchun an'anaviy tashqi savdo zanjiridagi ayrim tranzaksion xarajatlarni kamaytirishi mumkin [2].

2026-yilda bond omborlari orqali elektron tijoratni amalga oshirish bo'yicha huquqiy eksperimentning boshlanishi transchegaraviy savdoda yangi logistika modelini sinashga qaratilgan. Prezidentning 2026-yil 13-apreldagi PQ-136-son qarori [6] asosida boshlangan tajriba doirasida Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-iyuldagi 388-son qarori bond omborlari faoliyati va ular orqali tovar sotish tartibini belgiladi [7]. Bunday ombor modeli mahsulotni xarid sodir bo'lgandan keyin uzoq masofadan jo'natish o'rniga uni talab bozoriga yaqin joyda saqlash imkonini berishi mumkin, natijada buyurtmani bajarish muddati va logistika xarajatlari bo'yicha samaradorlikni oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yuzaga keladi.

Mavjud ochiq statistikani yanada batafsillashtirish bozorning ichki tarkibini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Jami aylanma elektron tijoratning umumiy ko'lamini aks ettiradi, B2B va B2C bitimlari, mahalliy va transchegaraviy operatsiyalar, platformalar kesimidagi tranzaksiyalar soni, o'rtacha buyurtma qiymati hamda xizmatlar segmenti bo'yicha muntazam ma'lumotlarning kengaytirilishi esa o'sishning tarkibiy manbalarini yanada aniqroq baholashga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlil elektron tijorat rivojida uchta shartli bosqichni ajratish imkonini beradi. Birinchi bosqichda elektron operatsiyalarning ommalashuvi va aylanmaning ko'payishi ustunlik qilgan. Ikkinchi bosqich huquqiy tushunchalar, operatorlar va xizmat zanjiri ishtirokchilarining maqomini aniqlashtirish bilan tavsiflanadi. Hozir shakllanayotgan uchinchi bosqich esa davlat axborot tizimlari integratsiyasi, operatorlar reyestri, yangi ombor modeli va transchegaraviy savdo vositalarini bir tizimga bog'lashga yo'naltirilmoqda.

Shunday qilib, istiqboldagi asosiy vazifa internet orqali sotuvlar ko'lamini kengaytirish bilan bir qatorda, raqamli savdo operatsiyasini hisobga olinadigan, huquqiy mas'uliyati aniq va tashqi bozor bilan uzviy bog'langan xizmat tizimiga aylantirishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda elektron savdo xizmatlari hajman tez kengayayotganini, shu bilan birga bozorni tartibga solish mexanizmlari ham yangi funksiyalar bilan to'ldirilayotganini ko'rsatdi. 2021–2025-yillardagi statistik dinamika raqamli savdoning iqtisodiy ahamiyati oshganini tasdiqlaydi, biroq agregat ko'rsatkichlar o'sishning tarkibiy manbalarini to'liq ochib bermaydi. Institutsional tahlil esa elektron bitimning huquqiy asosidan operatorlar reyestri, kuryerlik qoidalari, davlat axborot tizimlari integratsiyasi va bond omborlari kabi bozor infratuzilmasiga qadar bo'lgan kengayishni ko'rsatdi.



Aniqlangan holatlardan kelib chiqib, elektron savdo xizmatlarini rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

1. Elektron tijorat statistikasi tarkibini kengaytirish. Jami aylanma bilan bir qatorda B2B va B2C savdo hajmi, ichki va transchegaraviy operatsiyalar, tranzaksiyalar soni, o'rtacha buyurtma qiymati hamda faol operatorlar sonini muntazam e'lon qilish bozor tarkibini aniqroq baholash imkonini beradi.

2. Operatorlar reyestridan tahliliy manba sifatida foydalanish. Reyestr faqat xabardor qilish funksiyasini bajarmasdan, faoliyat turi va bozor segmentlari bo'yicha agregatsiyalangan ochiq ko'rsatkichlarni shakllantirishga xizmat qilishi maqsadga muvofiq.

3. Platforma-bank-soliq-bojxona ma'lumotlar almashinuvini standartlashtirish. Yagona ma'lumotlar formati bir operatsiyani turli tizimlarga takroriy kiritishni kamaytirib, ichki savdo va elektron eksport hisobining aniqligini oshirishi mumkin.

4. Transchegaraviy elektron savdo jarayonini soddalashtirish. Mahalliy sotuvchi uchun platformada buyurtma qabul qilish, xalqaro to'lov, bojxona ma'lumoti va pochta-kuryerlik jo'natmasini imkon qadar yagona raqamli jarayon orqali tashkil etish eksportga kirish xarajatlarini qisqartiradi.

5. Bond omborlari eksperimentini aniq natija ko'rsatkichlari bo'yicha baholash. 2026–2028-yillardagi tajriba yakunida buyurtmani bajarish muddati, saqlash va logistika xarajati, bojxona jarayoni davomiyligi hamda yakuniy narx kabi indikatorlar asosida iqtisodiy samaradorlik baholanishi zarur.

Umuman olganda, O'zbekistonda elektron savdo xizmatlarini rivojlantirishning navbatdagi bosqichi yangi platformalar sonini ko'paytirishdan ko'ra mavjud bozorni shaffof hisob, o'zaro ishlaydigan axborot tizimlari va transchegaraviy savdo imkoniyatlari bilan chuqurlashtirishga bog'liq. Bunday yondashuv raqamli tijoratning yuqori o'sish sur'atini barqaror, kuzatiladigan va iqtisodiy jihatdan samarali bozor modeliga aylantirish uchun zarur asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi. Elektron tijorat to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi O'RQ-792-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6213382> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi 885-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7282643> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
3. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 22-iyundagi O'RQ-1154-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-8283652> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
4. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O'zbekistonda bond omborlari orqali elektron tijoratni amalga oshirish bo'yicha huquqiy eksperiment yo'lga qo'yilmoqda [Elektron resurs]. – 2026. – URL: <https://napp.uz/oz/news/o-zbekistonda-bond-omborlari-orqali-elektron-tijoratni-amalga-oshirish-bo-yicha-huquqiy-eksperiment-yo-lga-qo-yilmoqda> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
5. Elektron tijoratda kuryerlik xizmati faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida: O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2025-yil 16-maydagi 1-son buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2025-yil 18-iyunda 3631-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7587377> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-apreldagi PQ-136-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8131421> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Bond omborlari faoliyatini tashkil etish va ular orqali tovarlarni sotish tartibi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-iyuldagi 388-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/doc-passport/8340473> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
8. Laudon K. C., Traver C. G. *E-commerce 2023–2024: Business, Technology, Society*. Global Edition. 18th ed. – Pearson, 2024.
9. Maxammadaliyeva M. Raqamli xizmatlar bozori: elektron tijorat orqali xizmat ko'rsatishning yangi bosqichlari // *Green Economy and Development*. – 2025. – T. 3. – № 4. – DOI: 10.5281/zenodo.15272997. – URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15272997> (murojaat sanasi: 16.09.2026).



10. Maxmudov L. Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili // *Green Economy and Development*. – 2025. – T. 3. – № 6. – DOI: 10.5281/zenodo.15752811. – URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15752811> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
11. Nazarova S. Elektron tijoratni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish // *Green Economy and Development*. – 2026. – T. 4. – № 6. – DOI: 10.5281/zenodo.20628991. – URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20628991> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
12. OECD. *The Digital Transformation of SMEs*. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 275 p. – (OECD Studies on SMEs and Entrepreneurship). – DOI: 10.1787/bdb9256a-en. – URL: <https://doi.org/10.1787/bdb9256a-en> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
13. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. Elektron tijoratda kuryerlik xizmati faoliyatini amalga oshirish to'g'risidagi nizom bo'yicha axborot [Elektron resurs]. – 2025. – URL: <https://napp.uz/oz/news/elektron-tijoratda-kuryerlik-xizmati-faoliyatini-amalga-oshtirish-to-g-risidagi-nizomni-tasdiqlash-haqida-gi-buyruq-davlat-ro-yxatidan-o-tkazildi> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
14. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. Elektron tijorat operatorlari faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshirish qoidalari tasdiqlandi [Elektron resurs]. – 2026. – URL: <https://napp.uz/oz/news/elektron-tijorat-operatorlari-faoliyatini-xabardor-qilish-tartibida-amalga-oshtirish-qoidalari-tasdiqlandi> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Elektron tijorat savdo hajmi (yillik), 2016–2025 [Elektron resurs] // SIAT statistika axborot tizimi. – 2026. – URL: <https://siat.stat.uz/data/2833/?lang=uz> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
16. Satvoldiyev U. K. O'zbekistonda elektron tijoratni yuritish va tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asoslari // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2024. – T. 2. – № 1. – URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/921> (murojaat sanasi: 16.09.2026).
17. UNCTAD. *E-commerce and Digital Economy Programme: Year in Review 2024*. – Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2025. – UNCTAD/DTL/ECDE/INF/2025/1.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
